

G'oya: Arifmetik amallarni o'rganamiz;

“Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”

Shavkat Mirziyoyev

G'oyaning maqsadi: umumiy o`rta ta`lim maktablarida matematika faniga o`quvchilarni qiziqtirish va ularga bilim berish, ta`lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlar qo`llash kompetentsiyalarini rivojlantirish.

G'oyaning vazifasi: Asosiy matematika qonuniyatlarini bilish bugun deyarli hamma uchun kerak. Ko`p kasblar bevosita matematika bilan bog`liq: moliya, kompyuter texnologiyalari, injeneriya va boshqalar. Shuning uchun ham, garchi bu oson bo`lmasada, farzandlarimizga «fanlarning shohi»ni o`rgatish juda muhim.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga hamda **“Matematika”** fanini o`qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 7-maydagi **“Matematika sohasidagi ta`lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risidagi”** PQ-4708-sonli qarorini ijrosini ta`minlash hamda O`zbekiston Respublikasining 2030- yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg`or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta`limi tizimida ta`lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o`quvchilarning o`qish, matematika va tabiiy yo`nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo`naltirilgan ta`lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida, o`quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg`u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta`lim dasturlari va yangi davlat ta`lim standartlarini joriy etish, o`quvchilarning bilim darajasini baholashda ta`lim sifatini baholash bo`yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Maktablarda boshlang'ich sinf ta'limida o'quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo'lib, o'quv faoliyati bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki bu davrda o'quvchining ta'lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish hamma davrda muammo bo'lib kelgan, chunki maktabga ilk qadam qo'ygan bolaga son va sanoq tushunchasini shakllantirish pedagogdan juda katta tajriba va mahorat talab qiladi. Darsni tashkil qilishda ko'rgazmalilik hamda didaktik materiallardan foydalangan holda dars qiziqarli tashkil etilishi uchun elektron darsliklardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

G'oyani amalga oshirish: *Demak bolalarda matematika faniga qiziqishni qanday uyg'otish mumkin?*

Men ushbu “Arifmetik amallarni o'rganamiz” nomli go'yamga “Matematika” va “Mantiqiy misollar to'plami” dasturlar majmuasini boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilariga yaqindan yordam beruvchi qo'llanma sifatida tavsiya etaman.



“Matematika” dasturi.



“Mantiqiy misollar to’plami” dasturi.

Bu dasturlar matematika fanidan boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan asosiy amallar: **qo`shish, ayirish, ko`paytirish, bo`lish, uzunlik, massa, masofa, vaqt, tezlik, shuningdek mantiqiy fikrlashga doir misollarni** qiziqarli va sodda yo`llar bilan tushuntirish, og`zaki hisob usullarini, yozma hisoblash algoritmini o`rgatish, hisoblash natijasini mikrokalkulyatorlar yordamida tekshirish, hisoblashda o`quvchilar yo`l qo`yishi mumkin bo`lgan xatolarni aniqlash va uni bartaraf qilish yo`llarini izlashdan, shuningdek og`zaki va yozma hisoblashga doir didaktik o`yinlar to`plamidan iborat.

Dasturlar juda oddiy bo`lib besh yoshli bola ham ishlata oladigan darajada soda tuzilgan. Bundan tashqari ularning qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida multfilm qahramonlarining ramslari va musiqalaridan foydalanilgan. O`quvchilar dasturdagi misollarni bir marta bajargandan sung misollarning javoblarini yodlab olishlari aniq. Bu kamchlikni bartaraf etish maqsadida dasturni necha marotaba ishga tushirsalar shuncha yangi misollar paydo bo`ladi. Qisqa qilib aytganda misollardagi sonlar takrolanmadigan qilib tuzulgan. Bu esa dasturdagi misollar cheksiz ekanligini anglatadi. O`quvchilarning mantiqiy fikrlashga o`rgatish maqsadida dasturda o`nga

yaqin misollar joylashtirilgan bo'lib, o'quvchilarni xalqaro baholash EGRA, EGMA, PISA, TIMSS dasturlariga tayyorlashga katta yordam beradi.

G'oyani tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar; (O'qituvchilarga)

Matematika fanini o'qitishda AKT vositalaridan foydalanilgan holda nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Nazariy mashg'ulotlarda matematika fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar beriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda matematikani o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish usullari, matematika darsiga qo'yilgan zamonaviy talablar o'rgatiladi.

Mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Arifmetik amallarni o'rganamiz nomli dasturlar majmuasining mazmuni o'quv rejadagi "O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash", "Pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati", "Matematika fanini o'qitish metodikasi" o'quv rejasi bilan uzviy bog'langan holda o'quvchilarni bilim darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Biz bu g'oyani amaliyotda joriy etdik va quyidagi natijalarga erishdik:

-3-sinf o'qituvchisi bilan haftada bir marta informatika xonasida "Arifmetik amallarni o'rganamiz" nomli to'garak tashkil etdik.

-Har bir o'quvchi yigirma minut kompyuter oldida o'tirishini hisobga olib dastlab o'quvchilarga kompyuterni boshqarishni o'rgatdik.

-Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kompyuterda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ldi.

- Multfilm qahramonlarining rasmlari orqali berib borilayotgan misol va masalalar, o'quvchilar tomonidan katta qiziqish uyg'otdi, bu esa matematika faniga qiziqmaydigan o'quvchilarni ham bu fanga qiziqishlari uyg'otib, ushbu dastur orqali matematik hisob kitob ishlarini bajarishganliklarini guvohi bo'ldik.

-O'quvchilar har bir masalaga jiddiy e'tibor berib berilayotgan misollarni qanday bajarish kerakligini ustozidan sinchkovlik bilan o'rgandi.

-Matematika fanida o'quvchilarning fanni o'zlashtirish ko'rsatgichi yaxshilandi.

-Sizga savol 138 sonini Rim raqamida yozib bera olasizmi? Bu dastur orqali Rim raqamlari mavzusini juda oson va qulay usulda o'quvchilarga o'rgatish imkoni yaratilgan.

-O'quvchilar mustaqil ishlashga o'rganishdi hamda ularga quyidagi tushunchalar hosil bo'ldi.

- matematik mulohaza yuritish, sodda xulosalar chiqarish, mos keladigan asoslarni tanlash;

– muammo mazmunidan kelib chiqib, matematik natija yoki xulosa ma'noga ega yoki ega emasligini tushuntirish;

– muammoni boshqa shaklda ifodalash, jumladan, uni matematik tushunchalarga moslashtirish va tegishli taxminlarni keltirish, ta'riflar, qoidalar va formulalarni, algoritmlarni va hisoblashlarni qo'llash;

– matematik natijani yoki yechimni aniqlash uchun ishlatilgan jarayonlar va algoritmlar, modellarni tushuntirish va asoslash;

– natijalarning ma'nosini tushuntirish uchun matematik natijalarni real olam kontekstida talqin qilish;

– kontekstda berilgan muammoning matematik yechimini qo'llaydigan, rad etadigan tushuntirishlarni va dalillarni hosil qilish hamda matematik yechim ustida fikr yuritish;

Bu natijalar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaxshi ko'rsatgichdir.

Siz aytishingiz mumkin: *Bu natijalarga erishish oson bo'lmagandir?*

Marhamat mening **“Arifmetik amallarni o'rganamiz”** nomli dasturlar majmuasidan foydalanib ko'ring va barchasi quruq gap emasligiga amin bo'ling.